Diabetga qarshi dori vositasi

Plantago major L. o’simligi polifenollari kompozitsiyasi asosida diabetga qarshi “Plantagin” dori vositasi O’zR FA Bioorganik kimyo instituti olimlari tomonidan yaratilgan. “Plantagin” dori vositasi giperglikemiyaning turli modellarida gipoglikemik faollikni namoyon qilib, diabet asoratlari rivojlanishining oldini oluvchi kuchli antioksidant xossaga ega (tibbiyotda qo’llaniluvchi gliklazid, glibenklazidga nisbatan ancha sezilarli ta’sirga ega).

“Plantagin” eksperimental diabet modelida qondagi glyukoza miqdorini pasaytiradi. Suvda yaxshi eriydi.

Insulinga bog’liq bo’lgan I turdagi diabetda gliklazidni qo’llash taqiqlangan bir paytda, “Plantagin” gipoglikemik vosita sifatida qandli diabetning har qanday turida tavsiya etiladi.

Plantago major L. (katta bargli zubturum) o’simligidan “Plantagin” substantsiyasini ajratib olish usuli juda sodda va ortiqcha mablag’ talab etmaydi.

Ishlanma “Diabetga qarshi vosita” sifatida ro’yxatdan o’tkazilgan va patent olingan.